

*Andijon davlat tibbiyot instituti  
Biologik fizika, informatika va tibbiy  
texnologiyalar kafedrası  
assistenti Komilova .D.T*

## **TIBBIY TA'LIM MUASSASALARIDA FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA YANGI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tibbiy oliy ta'lim tizimida klinik va teoretik fanlarni o'qitish jarayonida ya'ni "Tibbiy ta'limda bir qadam oldinda" deb nomlangan yangi pedagogik texnologiya taklif etilgan.

**K a l i t s o' z l a r:** stereo nusxa, HTML teglari, Microsoft Word, veb-stranitsa, identifikatsiya.

*Komilova D.T.  
department of biological physics,  
informatics, medical technology  
Andijan State Medical Institute*

## **THE USE OF NEW TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING SUBJECTS IN MEDICAL INSTITUTES.**

**Abstract:** This article proposes a new pedagogical technology called "one step ahead in medical education" in the process of teaching clinical and theoretical sciences in the higher medical education system.

**Keywords:** stereo copy, HTML tags, Microsoft Word, web page, identity.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy – siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib

borilmoqda. Islohotlar respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo‘li deb e’tirof etilgan demokratik, insonparvar, xuquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi. Mazkur harakatlar strategiyasini amalga oshirish uchun – “ Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining- 2909 qarorida Oliy ta’lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo‘yicha o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy qilish eng muhim vazifalardan biri etib qayd etildi. Belgilangan vazifalarni bajarish, g‘oyalarni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi kadrlarning roli muhim ekanligi o‘z isbotini topdi.


**Dolzarlighi.** Bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi turli turli pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash taklif etilmoqda. Ammo taklif etilayotgan pedagogik texnologiyalarning barchasi ham birdek hamma fanlarga mos kelavermaydi. Shuning uchun har bir fan mutaxassislari o‘zlarining mutaxassislik fanlarining xususiyatlariga mos keluvchi pedagogik texnologiyalardan amaliyotda foydalansalar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Taklif etilayotgan **“ONE STEP AHEAD MEDICAL EDUCATION”**, ya’ni “Tibbiy ta’limda bir qadam oldinda” deb nomlangan yangi pedogogik texnologiya boshqa pedogogik texnologiyalardan, barcha fanlarning xususiyatlariga mos kelishi bilan dars mashg‘ulotlarini noana’naviy usul yordamida AKT asosida sifatli darsni tashkil etish jixatlari bilan ajralib turadi.

O‘quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirish talabi o‘qitish uslubiyatida dars mashg‘ulotlarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni talab

etadi. Taklif etilayotgan mazkur pedagogik texnologiya amaliy mashg'ulot darslarida tarqatmali materiallar - og'zaki savollar multimedia va video roliklar, testlar, vaziyatli masalalar talabalarga elektron ko'rinishida taqdim etiladi. Bunda talaba amaliy mashg'ulot mavzusiga oid tarqatmali materiallarni **"Ekran olamida"** stereo nusxada ko'rishga muvaffaq bo'ladi.

### **Tadqiqot usuli va joriy etish mexanizmlari:**

Mazkur **"ONE STEP AHEAD MEDICAL EDUCATION"**, ya'ni "tibbiy ta'limda bir qadam oldinda" deb nomlangan yangi pedagogik texnologiya HTML dasturida tayyorlandi. Uning ishchi oynasi quyidagicha:



Bu oynani yaratish uchun HTML teglaridan foydalanildi. Oynada ko'rib turganingizdek raqamlar mavjud bo'lib, bu raqamlar ostida mavzuga tegishli savollar yashiringan. Buni tayyorlash texnologiyasida mavzuga oid savollar Microsoft Word dasturida yoziladi va saqlashda faylning veb-stranitsa tipi tanlanadi hamda mazkur fayl bilan tanlangan raqam o'rtasida giperssılka o'rnatiladi. Oynada ko'rinib turgan boshqa elementlar ham shu tarzda shakllantiriladi.

**"ONE STEP AHEAD MEDICAL EDUCATION"** yangi pedagogik texnologiyasini amalga oshirish mexanizmi:

1-bosqich: guruhdagi talabalar kichik guruhlarga bo'linadilar va ekrandagi savollardan birini tanlaydilar. Raqamlar ostiga yashiringan

savollar o'qituvchi tomonidan talabalarga taqdim etiladi va o'ylash uchun vaqt beriladi.

2-bosqich: talabalar savolning javobini qisqa vaqt davomida guruh bilan muhokama qiladilar va savolga javob beradilar. Izoh: guruh ishtirokchilari faqat bir marta savolga javob berish huquqiga ega. Keyingi o'rinlarda boshqa savollarga qo'shimcha to'ldirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3-bosqich: savol-javoblar so'ngida o'qituvchi tomonidan barcha savollarning javobi umumlashtiriladi va mavzuga oid video-rolik talabalarga namoyish etiladi.

4-bosqich: har ikki guruh tanlash yo'li bilan vaziyatli masalalarni tanlaydi. Echimini topib muhokama qiladilar.

6-bosqich: mashg'ulot so'ngida mavzuni mustahkamlash uchun talabalar **Ispring** dasturida tayyorlangan testlarni echadilar.

#### **Tadqiqot natijalari va xulosalari:**

1. Tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarining biofizika fanidan amaliy mashg'ulot darslarini mukammal o'zlashtirishlariga, dars davomida talabalarining qobiliyatlarini to'liq namoyon eta olishlariga imkoniyat yaratdi.

2. Amaliy mashg'ulot olib boruvchi pedagoglar uchun qulayliklar yaratildi va mashg'ulotlar identifikatsiyasi ta'minlandi.

3. Mazkur texnologiya talabalar imkoniyatlarini va salohiyatini hisobga olib, ularni to'la ishga solish, intellektining darajasini aniqlash va undan samarali foydalanishni tashkil qilish, zamonaviy fan-texnika yutuqlari va kompyuter texnologiyalari yutuqlaridan foydalanib, mashg'ulot samaradorligini eng yuqori darajaga ko'tarish imkoniyatini berdi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.M.I.Bazarboyev, I,Mullajonov, Biofizika.Toshkent.2018 yil.

<https://e-library.namdu.uz>

2.Xitun V.A., Sklyarevich V.V., Gofman I.A., YUrev M.M. Praktikum po fizike. Moskva. 1972.

3.Agapov B.T., Maksyutin G.V., Ostroverxov P.I. Laboratornyy praktikum po fizike. Moskva. 1982.

4.Nurmatov J., Isroilov M.I., Nishonov M., Avliyqulov A. Fizika. Laboratoriya ishlari. Toshkent. 2003.

5.Ortiqov A. Fizika o'qitishda fan-texnika yutuqlari va o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish. Uslubiy qo'llanma. Andijon. 2008.

6.Yo'ldoshev B.J., Ro'ziev SH.M. Multimediya tizimidan foydalangan holda fizik hodisa va jarayonlarni modellashtirish. FMI jurnali. 2002., №4(6), 54 s.